

SHARQDA MAQOM SAN'ATINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

Ramazonova O'g'iloy Xolmurodovna

Buxoro davlat universiteti "Musiqqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi katta o'qituvchisi

Po'latov Davrbek Baxtiyor o'g'li

12-2vokal 20 guruh talabasi

Maqom san'ati, ayniqsa, Sharq xalqlari jahon sivilizatsiyasi xazinasiga bergan madaniy va ma'naviy qadriyatlar orasida ajralib turadi. Ushbu noyob, elita va boy musiqa san'ati Gibraltar bo'g'ozidan Hindiston yarim oroliga tarqaldi. Bugungi kunda Turkiya, Ozarbayjon, Eron, Arab halqlari, Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston, Sharqiy Turkiston kabi davlatlarda maqom san'ati mavjud. Maqomlar Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan mumtoz musiqa janridir. Ular bu xalqlarning O'ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan. Modernizatsiya davri yaratgan madaniy qadriyatlarning keskin uzilishlariga qaramay, ushbu san'at hozirgi kungacha saqlanib qoldi, O'ziga xosligi va O'ziga xosligini saqlab qoldi va o'z kelajagini zamon ruhiga mos ravishda ta'minladi. Maqomlar Sharq xalqlarining musiqa merosida juda katta o'rin tutadi.

Maqom atamasi arabcha so'z bo'lib, "istiqomat o'rni", "turar joy" ma'nolarida keladi. Musiqa istiloxida esa maqom musiqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o'rni, ya'ni pardalardir. Musiqa risolalarining ba'zilarida maqomlar turlicha ta'riflanadi. Bu so'z nima ma'noni bildiradi? Ibn Zaylaning fikricha maqom so'zining lug'aviy ma'nosi, arabcha "o'rin", "joy", "holat", "vaziyat", "bosqich", "daraja" kabi ma'nolarni bildiradi. Bu atama dastlab musiqiy atama sifatida talqin qilinmagan. Maqom atamasi turi sohalarda turli ma'nolarda qo'llanilgan. U ilk bor tasawuf ta'limotida, so'fiylikning to'rt bosqichni ifoda etgan. Bu bosqichlarni inson Ollohni tanishi, bilishi uchun o'z nafslarini yengib, ruhiy-axloqiy poklanishi uchun bosib o'tishi lozim bo'lgan. To'rt bosqichning har biri o'n asosdan iborat bo'lib, ular "maqom" deb atalgan. Keyinchalik maqom so'zi matematikada "mahraj" ma'nosini anglatgan. Dilorom Karomatning "12 maqam System and its similarity with Indian Raga's" (according to the Indian Manuscripts) (O'n ikki maqom tizimi va uning hind ragalari bilan o'xshashligi (qo'lyozmalarga ko'ra) deb nomlangan maqolasida yozishicha, Kashmirda ham maqom so'fiyona kalom deb atalishini e'tirof etadi.

XIII-asrning 50-yillari "nag'ma joyi", "parda o'rni" ma'nolarini anglatuvchi atama sifatida qo'llanilgan. Maqom atamasi XV-XVIII asr manbalarida "lad", "lad tizim"ni anglatgan va o'n ikki maqom parda tizimini bildiruvchi atama tarkibida qo'llanilgan.

Maqomning mohiyatini ochib berayotganda haddan tashqari idealizatsiya va tasawuf harakatlaridan, shuningdek uni haddan tashqari moddiy nuqtai nazardan talqin qilish tendensiyasidan qochish kerak. Umuman olganda, o'rta asrlar san'ati, shu bilan birga maqom san'ati qarama-qarshi dunyoviy va diniy qutbni o'z ichiga oladi:

Shu o'rinda maqom kuylarining ilk namunalari shu tariqa yuzaga kelgan deb taxmin qilish mumkin. Islom dinini qabul qilgan badaviylar keyinchalik bu tarzda ibodatlariga ma'naviy ehtiyoj qolmadi va bu musiqa san'atiga aylana boshladi. Shu tarzda arab musiqasi paydo bo'la boshladi.

O.Matyakubov nazariy jihatdan Maqomot evolyutsiyasini uchta yirik tarixiy davrga ajratadi: VI-VII asrlardan XIII asr boshlarigacha, XIII-XV asrlar va XVI asrdan XX asr boshlarigacha bo'lish mumkin.

O.Ibrohimov esa maqomlar tarixini o'rganish nuqtai nazardan ikkiga bo'ladi:

1) Maqomlarning qadimiy davrlarga mansub kuy va qatlamlar tarixi; 2) Maqom tizimlarining shakllanish davri tarixi.

Falsafiy nuqtai nazardan maqom evolyutsiyasiga baho beradigan bo'lsak, maqom kuy qo'shiqlari oliy sivilizatsiya yoki arsh a'lodan kelgan. U tasawufdagi "hol"ni ifodalaydi ya'ni, so'fiy "jazva" holatiga aynan shu kuylar orqali tushgan va ruhiy komillikka intilgan. Balki shu sababdan maqom kuylari katta hajmni o'z ichiga oladi.

Ushbu maqomchilik san'ati insonning tafakkuriga, hissiy va estetik vazifasidan tashqari ichki fikr va gnoseologik oydinlashtirishga yordam beradi. Falsafiy nuqtai nazardan maqomning tarixiy evolyutsiyasini 3 bosqichga bo'lish mumkin. 1-bosqich maqomlarining bazis substansiyalari (iyqo' va alhon)ning shakllanishi, 2-bosqich maqomlarning nazariy metodologik asoslarining shakllanishi, 3-bosqich maqomlarining zamonaviy rivojlangan davri.

Birinchi bosqichda maqom hali bir janr sifatida o'zini to'liq namoyon etmagan. Uning faqat bazis substansiyalari (iyqo' va alhon) shakllanayotgan davredir. Buni Ibn Sino va Forobiy asarlarida ko'rish mumkin. "Iyqo'" (ritm) arabcha "vaqa" "tuzmoq", "sozlamq", "belgilamoq" alhon (arabcha "lahn" so'zining ko'pligi) alhon (kuy) ma'nosini bildiradi. Ritm va kuy nafaqat maqom san'atida, balki boshqa musiqiy janrlarning ham asosida yotuvchi omil hisoblanadi. Bu haqda keyingi bobda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Ikkinchi bosqichda maqom san'atining nazariy amaliy asoslari yuzaga keldi. Bu davrda Qutbiddin Sheroziy, Ibn Zayla, Sayfiddin Urmaviy, Jomiy, Zaynulobidin Husayniy, Darvish Ali Changiy, Najmiddin Kavkabiy kabi allomalarning ijod namunalari Say-fiddin Urmaviy davrida tizimlashtirildi.

Sayfiddin Urmaviy davrida ishlab chiqilgan O'n ikki maqom tizimi XVII asrgacha davom etdi. O'n ikki maqom negizida milliy va mintaqaviy maqom turkumlari vujudga kela boshladi. O'zbek tojiklarda maqom, turkman uyg'urlarda muqom, eron xalqlari, ozarbayjon xalqlarida mug'om yoki dastgoh, arab xalqlarida maqom shaklida vujudga keldi.

Maqom san'atining zamonaviy rivojlangan uchinchi bosqichida O'n ikki maqom tizimi XIX asrda oltitaga tushib qolishining sabablaridan biri fikrimizcha, insonlarning estetik ehtiyojidan kelib chiqib estetik ong, estetik tafakkur va estetik didning transformatsiyasi jarayonida yuzaga keldi. Shuningdek makon va zamonda vujudga kelgan ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar bunga yaqqol bo'la oladi.

Shashmaqom O'rta Osiyoda yashab kelgan maqom turkumlarining eng so'nggi shaklidir va bundan taxminan ikki asrlari (XVIII a.) shakllangan. Maqom san'atiga faol qiziqish, uni ma'naviy qadriyat sifatida e'zozlash XIX asrdan e'tiboran Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida biroz jonlana boshladi. XX asr boshlariga kelib mintaqada jadidchilik harakatining rivojlanishi munosabati bilan milliy musiqa maqomlarga bo'lgan ehtiyoj yangi bir bosqichga ko'tarildi. Jadid namoyondalari vakili bo'lmish Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida Sharq maqomchilik san'atining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi fikryuritgan. XX asrning 20-yillarida bu mavzuga oid birin ketin Mulla Bekjon Rahmon o'g'li (Bekjon Rahmonov) va Muhammad Yusuf Devonzoda (Matyusuf Xarratov)larning "Xorazm musiqiy tarixchasi", A.Uspenskiyning "Shoshmaqom" nota to'plami va "O'zbeklarning klassik musiqasi" maqolasi, G'ulom Zafariyning maqolalari va Farg'ona-Toshkent ustozlarining shajarasi maqomshunoslik tarixida yangi burilishning yuzaga kelganidan dalolat beradi.

Dovud (Dovudcha), Yusuf (Yusufi Gurg-Yusuf Bo'ri), Levi Boboxon (Levicha) XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoroda o'tgan yahudiy hofizlari. Bu san'atkorlarning birgina syporishi (syporish maqom turkumlarini yakunlovchi kichik bir kuy lavhasi) -tushirimi majoziy ma'noda osmondagi falak raqqosalarini ham yerga qaytaradi, "tushiradi",deb ta'rif beriladi.

Keyingi asrlarda maqom san'ati ustalardan shogirdlarga nafaqat an'anaviy yozma shaklda, balki individual ijodkorlarning individual talqinlari orqali ham o'tdi. Shu sababli, qurilma va uning qismlari dastlabki namunalaridan sezilarli o'zgarishlarga duch keldi.

XIX-XX asrlar maqomlarni notalashtirish davri bo'ldi. Hozir O'zbekistonda maqomlarning uch turi mavjud: 1. Olti maqom (Shashmaqom yoki Buxoro maqomlari). 2. Xorazm maqomlari. 3. Farg'ona Toshkent maqomlari. Shu kunga qadar xalqning sevimli kuylari bo'lib kelayotgan Shashmaqom (olti maqom) Duvozda maqom zaminida shakllanib bordi.

Avvalambor shuni ta'kidlash kerakki, Forobiy Sharq musiqa nazariyasini shakllantirishda qadimgi dunyo nazariyotchilari qoldirgan ilmiy merosga ijodiy yondoshgan edi. Bu hol, jumladan, musiqaning ilmi ta'lif (nag'ma, bo'd, jins, jam') va ilmi iyqo' (vazn) masalalarini tadqiq etishda ko'zga tashlanadi. Masalan, alloma iyqo' – ritm masalasini qadimgi yunon olimlari kabi she'riyat qonunlari doirasida emas, balki o'z davri musiqa amaliyotidan kelib chiqqan holda, alohida fan sifatida tadqiq etgan. Bu borada Forobiyning «Kitobul iyqo'ot» asari alohida ilmiy qiymatga ega. Bu asarda ilk bor mumtoz iyqo' nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda ritm-usul omilining mustaqil badiiy ahamiyati hamda musiqada tutgan beqiyos o'rni asoslab berilgan edi¹. Forobiyning iyqo' ta'limoti keyinchalik alloma Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo», «Kitob un-najot» va «Donishnoma» ilmiy asarlarida rivojlantirildi.

Sharq olimlari musiqaning ilmi ta'lif masalalarini o'rganishda ham qadimgi yunon nazariyotchilari, jumladan Pifagor (tax. er.avv. 580–520) ilmga tatbiq etgan sonli (matematik) usullarni keng qo'llagan edilar. Zero, shaklan hashamatli me'moriy inshootlarga qiyoslanishi mumkin bo'lgan mumtoz musiqa tizimlarini yuzaga keltirish uchun, eng avvalo, aniq «o'lchovlar» asosida ishlab chiqilgan musiqiy «qurilma»lar bo'lishi talab etilgan.

Safiuddin Urmaviyning ilmiy tasnifoti keyingi asrlar (XV–XVI) davomida Xo'ja Abdulqodir Marog'iyning «Maqasidul-alhan» (Kuylarning o'rni), «Jamiul-alhan» (Kuylar to'plami), Abdurahmon Jomiyning «Risolayi musiqiy», Zaynulobiddin Husayniyning «Qonuni ilmi va amalii musiqi», N.Kavkabiyning «Risolayi Duvozdammaqom», «Kulliyoti Kavkabi» kabi asarlarida ijodiy davom ettirilib, pirovardida, O'n ikki maqom tizimi tarkibidan yana (12 maqomdan tashqari) 6 ovoza, 24 sho'ba, 3 rang va 24 murakkabot kabi muayyan darajali tovush uyushmalari ham o'rin olgan edi.

Mazkur tizim muayyan «harakatga» kelishida ham 12 jam' (maqom) alohida nufuzli va sermazmun vazifalarni bajargan. Bu holatlarni atroflicha idrok etish uchun esa, ushbu tizimning qolgan tarkibiy qismlari xususida ham ozmi-ko'pmi tasavvurga ega bo'lish zarur. Bu borada, ayniqsa, maqom va sho'ba munosabatlari muhim o'rin tutadi. Shu bois, galdagi e'tiborni sho'balarga qaratamiz.

Sho'balar xususida. O'rta asrlarda yozilgan risolalarda O'n ikki maqom tizimidan o'rin olgan sho'balarning muqimlashgan umumiy soni 24 ta ko'rsatilib, ular quyidagi xususiy nomlar bilan ataladi:

1. «Dugoh». 2. «Segoh». 3. «Chorgoh». 4. «Panjgoh». 5. «Muxayyar». 6. «Hisor». 7. «Mubarqa'». 8. «Nayrez». 9. «Nishoburak». 10. «Ro'yi Iroq». 11. «Mag'lub». 12. «Rakab». 13. «Navro'zi Bayotiy». 14. «Zobul». 15. «Avj». 16. «Navro'zi Xoro». 17. «Mohur». 18. «Ashiran». 19. «Navro'zi Sabo». 20. «Humoyun». 21. «Nuhuft». 22. «Uzzol». 23. «Navro'zi Arab». 24. «Ajam» («Navro'zi Ajam»). Sho'balarning nomlariga qaraganda, bu guruhda turli Sharq xalqlari (turk, eron, arab, tojik va b.)ning qadimdan an'anaviy ijro etib kelingan aytim kuy-ohanglari tovushqator tuzilmalari tarzida tasnif etilganga o'xshaydi. Har holda ularning nomlarida shunga ishoralar bor. Chunonchi, ular orasida «Navro'zi Arab», «Navro'zi Bayotiy», «Navro'zi Xoro», «Navro'zi Ajam» kabi nomlar borki, ular uzoq o'tmishdan buyon keng nishonlanib kelinayotgan Navro'z bayrami kunlari ijro etilgan ma'lum aytim kuylarini anglatgan va, keyinchalik, maqom tizimiga tasnif etilishi munosabati bilan ularning har biriga shu bayramning nomi nisbat berilgan bo'lsa kerak. Bunday taxmin qilinishiga sho'balarning tarkibiy nag'malari bir tekisda emasligi ham ma'lum asos beradi. Chunki, sho'ba uyushmalari kuy-ohang xususiyatlarining aksi o'laroq, asosan ikki («Dugoh», «Mubarqa'»),

¹ Nazarov A. Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. Toshkent, 1995.

uch («Segoh», «Rakab», «Zobul»), to'rt («Chorgoh»), besh («Panjgoh», «Navro'zi Bayot», «Uzzol», «Nayrez», «Sabo», «Ro'yi Iroq»), olti («Navro'zi Arab», «Navro'zi Xoro») va yetti («Humoyun») tovush pog'onalaridan tarkib topadi. Shu bilan birga, bu guruhda hajmi zul-kull doirasida bo'lgan «Mohur», «Nuhft», «Avj», «Nayrez», «Muxayyar» kabi sho'balar ham uchraydi. Lekin, bu sho'balar keyinchalik, risola mualliflarining ayrim ta'kidlariga ko'ra, (kuyni bezaklash uchun) kiritilgan qo'shimcha bo'ldar evaziga) yuzaga kelgan bo'lsa kerak. Masalan, Mohur sho'basining asl (asosiy) shakli besh nag'madan iborat bo'lgani holda, unga quyidan yana qo'shimcha tovushlar kiritilishi natijasida, zul-kull miqyosini qamraydi.

Xullas, sho'balarning asl kuy andozalari tarkibida bo'd va nag'malar soni oz bo'lgan. Bu hol, o'rta asrlar kasbiy musiqasi qiymatlari yuzasidan baholanganda, sho'balarning nomukammal ekanligiga dalolat etgan. Zero, oktava oralig'idan kichik bo'lgan tovushlar uyushmasi noqis (Ibn Zayla ta'rifiga ko'ra: «al-jam' un-naqis») hisoblangan. Shu bois ham, ularning tarkibini zarur bo'd va nag'malar bilan to'ldirish lozim edi. Biroq, sho'balarning hajmini har qanday tovushlar sanog'i bilan orttirib borilishi ham doim mukammallik darajasini anglatavermaydi. Muhimi shundaki, kuy tovushlarining o'zaro nisbatlarida muloyimlik (ohangdoshlik) asosi yetarli miqdorda bo'lishi (ya'ni ohangdosh bo'ldarning soni tovushlar sonidan keskin kamayib ketmasligi) kerak. Yetarli miqdordagi ohangdosh sifatlar esa, ma'lumki, 12 jam' (maqom) tovush qatorlarida mujassam edi va shu sababdan ham ular asosida sho'balarning takomillashtirilishi maqsadga muvofiq bo'lgan. Zero, ularning har biri tarkibida mavjud yettita asosiy tovush pardalarida, sho'ba – kuy tuzilmalarini yangi uslub tamoyilida rivojlantirish imkoni mavjud edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..
4. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339
5. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.O
6. Hamidovich B. B. INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1063-1066.
7. Hamidovich B. B. AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF" IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 102-104.
8. Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.
9. Mustafoyev B. TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-66.
10. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.

11. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
12. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
13. Ortiqov O. R. TALABALAR MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA “QOBUSNOMA” ASARIDAN FOYDALANISH //Conferencea. – 2023. – С. 1-5.
14. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-47.
15. Жураев Б. Т., Абдурахмонова Д. У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора //Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2019. – №. 14. – С. 77.
16. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23.
17. Умурова М. Ё. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2. – С. 24-26.
18. Умурова М. Ё. РОЛЬ ТРУДОВЫХ ПЕСЕН В ФОЛЬКЛОРЕ //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 97-101.
19. Umurova M. Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – Т. 2795. – №. 546X. – С. 55.